

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
BIOLOGIYA KAFEDRASI

Qo'l yozma huquqida
UDK UDK 582.232.275+639.64.(575.146)

HAMROQULOVA NARGIZA KOMIL QIZI

BUXORO SHAHAR BIOHOVUZLARDAGI OQOVA SUVLARNI
SAPROBLILIK DARAJASINI BIOLOGIK USULDA O`RGANISH

Mutaxassislik: 5A 140103 –ixtiologiya va gidrobiologiya
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
biologiya fanlari nomzodi, dotsenti M.I.Mustafayeva

BUXORO 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. ADABIYOTLAR SHARHI.....	6
1.1. Suvo'tlarining oqova suvlarni tozalashdagi ahamiyatini o`rganilganlik darajasi.....	6
1.2. Indikator saprob suvo'tlarining ba'zi biologik xususiyatlari.....	13
2. TADQIQOT O'TKAZILGAN JOYNING FIZIK-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI. TADQIQOT METODLARI OB'EKTI VA MATERIALI	17
2.1. Tadqiqot o'tkazilgan joyning xususiyatlari.....	17
2.2. Tadqiqot obekti va metodlari.....	21
3. BUXORO SHAHAR OQOVA SUVLARNI TOZALASH INSHOOTI BIOLOGIK HOVUZLARINING ALGOFLORASI VA UNI NG MAVSUMIY O`ZGARISHI	37
3.1. Biologik hovuzlarning algoflorasi va taksonomik tahlili.....	37
3.2. Fitoplanktonlarning mavsumiy dinamikasi.....	45
3.3. Dominant fitoplanktonlar va ularning rivojlanishi.....	53
4. BIOLOGIK HOVUZLARDAGI INDIKATOR – SAPROB UVOTLARNI ANIQLASH VA ULARNIG TAKSONOMIK-FLORISTIK TAHLILI.....	56
4.1.Tozalash inshooti biologik hovuzlarida uchraydigan saprob suvo'tlar.....	56
4.2.Biologik hovuzlarda topilgan suvo'tlar taksonlarining o`xshashlik koeffisienti.....	67
XULOSALAR.....	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	77

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Suvo`tlar yuksak o`simliklar kabi ekosistemaning muhim komponentlaridan sanaladi. Tabiatda keng tarqalgan tirik organizamlar orasida suvo`tlar o`zining har tomonlama foydali xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Suvo`tlar tabiatda modda almashuviga, organik moddani sintezlovchi produtsentlar hisoblanadi. Suvda yashaydigan suvo`lar suvdagi tirik organizmlar uchun kislorod ishlab chiqaradi. Ma'lumotlarga ko`ra havodagi kislorodning salmoqli qismini dengiz va okeanlardagi suvo`tlar yetishtirib beradi. Suvo`tlar yer yuzidagi salkam 60% aholini ozuqa ratsioni tarkibiga kiradi. Dengiz va okeanlar sohillarida yashovchi xalqlar laminariya, ulva, parferiya kabi dengiz suvo`tlarini qadimdan istimol qilib kelishadi. Bu suvoi`tlarini tarkibida inson organizimi uchun barcha kerakli moddalar oqsil, yog', uglevodlar, aminokislotalar va ko'plab vitaminlar aniqlangan ayniqlsa yuqorida keltirib o'tilgan suvo`tlarining amaliy ahamiyati ancha keng o'rganilgan.

Suv havzalarida mikroskopik suvo`tlar ham uchraydiki, ular suvdagi kislorod bo'lish bilan bir qatorda suvdagi hayvonot uchun almashtirib bo'lmas oziqa hisoblanadi. Mikroskopik suvo`lar orasida fitoplankton suvo`tlar baliq chavoqlari uchun eng asosiy ozuqa hisoblanadi, shuning uchun baliqchilik xo'jaliklarida suv havzasining yuzasini keng bo'lishi, quyosh nuri tik tushib suvning yuzasi yaxshi isishiga e'tibor qaratadi. Bu esa suvda fitoplanktonlarni jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Tuxumdan yangi chiqqan chavoqlar oqsil, yog', uglevod va mikroelementlarga boy fitoplanktonlar bilan oziqalanib tez rivojlanadi.

Algoflorani inventarizatsiyasi muhim vazifa hisoblanadi, chunki suv havzalari ekosistemalari iqlim o`zgarishlari, fizik-geografik sharoitlarga, bundan tashqari insonning xo`jalik faoliyati oqibatlariga o`ta ta`sirchan. Suv havzalardagi suvo`tlar florasini o`rganib, havzaning ekologik sanitariya holatini baholash, hamda uni keljakdagagi holatini bashorat qilish imkoniyalari mavjud. Suvo`tlar jamoalarini sifat va son jihatdan tadqiq etish keyingi ishlarning imkoniyatlarini ochuvchi asosiy bosqichdir. Suvning o`z-o`zini tozalash va suv sifatini shakllanishida organik moddalarning bunyodkori bo`lmish-suvo`tlar muhim ahamiyatga ega bo`lib, ular suvni tozalashda faol ishtirok etadi va suvni erigan

kislород билан та`минлайди. Улар мoddalarning гидроекосистемадаги даврий xarakatida, oziqa zanjirida ishtirok etadi, suv гидробионтлари hayotiy faoliyatiga muhim ta`sir ko`rsatadi. Saprobiologik indikator suvo`tlari esa, suvni sifat ko`rsatkichini baholashda muhim rolni bajaradi, bularning barchasi nafaqat ilmiy, balki muhim amaliy ahamiyat kasb etadi (Alimjanova, 2007; Alimjanova, Shaimkulova, 2008).

Keyingi yillarda ekosistemalarga antropogen ta`sirning ortishi suv havzalarini faqat flora-faunistik nuqtai nazardan emas, balki ekologik sanitariya holatini ham o`rganish, unga ta`sir etuvchi omillarning darajasini aniqlash, monitoring qilish, qolaversa oldini olish kabi vazifalarni ham bajarishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot ob`ekti va predmeti. Buxoro shahar suv tozalash inshooti va suvo`tlar kollektiviyasi namunalari.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro oqova suvlarni tozalash biologik hovuz suvida keyingi yillardagi ifloslanish darajasini indikator saprob suvo`tlar yordamida monitoring qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

1. Buxoro oqova suvlarni tozalash biologik hovuz suvlarining indikator-saprob algoflorasini o`rganish.
2. Buxoro oqova suvlarni tozalash biologik hovuz suvida indikator fitoplanktonlarni mavsumiy dinamikasini o`rganish.
3. Buxoro oqova suvlarni tozalash biologik hovuz suvida dominant indikator fitoplanktonlarni aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Buxoro shahar oqova suvlarni tozalash inshooti suv xavzalari algaflorasini birinchi marta o`rganilayapti. Undan tashqari hovuzlarda tarqalgan fitoplanktonlarni mavsumiy dinamikasi va ularni indikator saproblilik darajasi birinchi marta ilk bor tadqiq qilinayapti. Respublikada baliqchilikni jivojlantirishda uning ozuqa bazasini shakllantirish va rivojlantirish uchin baliq boqiladigan hovuzlarning alflorasini o`rganish, undagi baliqlar uchun ozuqa bo`ladigan

fitoplanktonlarni mavsumiy rivojlanishini o'rganish. Olingen ma'lumotlar asosida baliqchilik xo'jaliklariga tavsiyalar berish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Buxoro oqova suvlarni tozalash biologik xovuzda uchraydigan suvo`tlar florasi to`liq inventarizatsiya qilindi. Ma`lum bo`lishicha, bu hududda suvo`tlarnin 268 turi aniqlandi. Bu suvo`tlar orasidan 98 turi suvning sanitariya holatini baholashda foydalanish mumkinligi bo`lgan indikator-saprof turlar ekanligi ma`lum bo`ldi. Tadqiqotlar davomida bu indikator-saprof turlarning oqim bo`ylab va fasllarda tarqalishi va rivojlanishi tadqiq etilib, biologik hovuz suvni ekologiya sanitariya holati baholandи.

Aniqlangan indikator-saprof suvo`tlarning 18 (18,55%) oligosaprof, 51 (52,57 %) alfa-mezosaprof, 5 (5,15 %) beta-mezosaprof va 3 turi (3,09 %) polisaprof suvo`tlar hisoblanadi.

Indikator-saprof suvo`tlar yil faslari bo`ylab bir xil taqsimlanmagan. Indikator-saprof suvo`tlar turlarining ko`pi (56) bahorda eng kam (29) qishda uchradi. Yoz (45) va kuzda (50) esa oraliq qiymatlarni namoyon etdi .

Ishning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertasiya ishi kompyuterda terilgan 80 ta sahifadan iborat bo'lib, ish kirish, adabiyotlar sharxi, qo'llanilgan uslublar va ashyolar, olingen natijalar va ularni taxlili, xulosa va adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Mazkur ishda 13 ta jadval, 9 ta rasm, 1 ta sxemalar keltirilgan.

1. ADABIYOTLAR SHARHI

1.1. Suvo'tlarining oqova suvlarni tozalashdagi ahamiyatini o'rganilganlik darajasi

Buxoro viloyatidagi ayrim kichik suv havzalari ilk bor I.A.Kiselev (1926,1930) [10,11,12] tomonidan o`rganilgan. Uning ma`lumoti bo`yicha Buxoro, Samarqand va Kattaqo'rg'onidagi hovuzlardagi suvo'tlarni rivojlanishiga suvning fizik kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishining ta'sirini o'rgangan. Bu joylarda suvo'tlarining 363 turi uchraganligi, ulardan 35 ta turi ko`k-yashil, 9 ta turi oltin tusli, 2 turi sariq-yashil, 16 ta turi pirofit, 59 ta turi evglena, 145 ta turi yashil va 95 ta turi diatomlardir.

I.A. Kiselev 1926, 1930 yillarda eski Buxoro va Samarqand shahri atroflaridagi ayrim suv havzalarda, hovuzlar va soylarda suvo'tlar tarkibini o`rganib, ularning mavsumiy o'zgarishini aniqladi. Eski Buxoro hovuzlarida 364 turdan ko`k-yashillar 30, xivchinlilar 97, peridiniylar 11, yashil suvo'tlar 108, kon`yugatlar 20, diatom suvo'tlar 98 tur va tur xillarini tashkil etadi. Bundan tashqari yil davomida tekshirishlar olib borib, suvo'tlar florasini ekologik sharoitlarini va mavsumiy o'zgarishlarini birinchi marotaba ko`p tomonlama ochib berdi. Samarqand atrofidagi suv havzalarida 177 tur va tur xillari uchrab, ular Cyanophyta 13, Chrysophyta 32, Bacillariophyta 77, Charophyta 77 tur va tur xillarini ekanligi ma`lum bo`ldi. Muallif bu suv havzalarining kimyoviy va biologik tahlilini umumlashtirib, qisqacha gidrobiologik xarakteristika ham bergen [12].

I.A. Kiselev Eski Buxoro hovuzlari protokokklari florasini Yava orollari va ayrim Afrika ko`llari florasi bilan taqqosladi. Uning ta`kidlashicha, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Jizzax hovuzlari eski Buxoro hovuzlaridan turli tomonlari bilan farq qiladi. Planktonlar ancha kam. Bu er uchun Lepocinclis texta xarakterlidir. Suv ostida ko`k-yashil suvo'tlar uchraydi. U sho'r suvlarda o'suvchi Nitzschia apiculata, N. obtusa, N.reverza va boshqa turlarni ko`rsatib berdi. U Lepocinclis texta, Carteria cordiformis larning xususiyatlarini o`rganib, suvni "gullatishi" da ishtirok etishini ko`rsatdi. Olim tomonidan aniqlangan turlarni deyarli yarmidan

ko`pi obligat plankton suvo`tlar, qolgan qismini fakul'tativ planktonlar tashkil etadi.

A.E.Ergashev (1964) [31] Buxoro viloyatidagi kollektor va zovurlar suvo`tlari florasini o`rgangan. Tadqiqotlar natijasida hammasi bo`lib, 365 ta tur va tur xillari aniqlangan bo`lib, ulardan 2 tasi xaralar, 4 tasi pirofitalar, 12 tasi evglenalar, 78 tasi ko`k-yashil, 42 tasi yashil va 157 tasi diatom suvo`tlariga mansub ekanligi va ularning mavsumiy rivojlanishi to`g'risidagi ma`lumotlar ham keltirilgan.

A.M.Muzafarov va K.Yu. Musaevlar (1961) [17] Zarafshon daryosi havzasida joylashgan quyimozor va To`dako`l suv omborlari al'goforasini tadqiq qilish natijasida, quyimozor suv omborida hammasi bo`lib 192 ta suvo`tlari turlari, tur xillari va formalarini, shu jumladan 40 ta yashil, 38 ta ko`k-yashil, 101 ta diatom, 7 ta evglena, 4 ta pirofit va 2 ta xara suvo`tlari bo`lsa, To`dako`l suv omborida hammasi bo`lib, 202 ta tur va tur xillari aniqlangan bo`lib, ulardan 31 tasi yashil, 52 tasi ko`k-yashil, 106 tasi diatom, 8 tasi evglena, 2 tasi pirofit va nihoyat 3 tasi xara suvo`tlariga mansub ekanligi aniqlangan.

Kollektor suvlari tarkibidagi tuzlar va ionlar Cl, SO₄, Ca va Mg tuproqda yig`ilib, o`simpliklarning o`sishi va rivojlanishiga zararli ta`sir qilishi o`rganilgan. A.N.Kostyakov (1951) [83] natriy tuzlarining o`simplik uchun zaharlilagini Na₂CO₃: NaCl: Na₂SO₄=5:2:1 shu tartibda aniqlagan. V.A.Kovda (1961) ham shunga o`xshash formani aniqlagan Na₂CO₃:NaCl:Na₂SO₄ - (4-5) : (2-3): 1. Natriy karbonat bikarbonatga nisbatan o`simplik uchun 4 barobar zaharli. Natriy tuzlari magniy tuzlariga nisbatan o`simplik uchun kuchli zaharlidir.

E.Cembarisovning (1981) yozishicha, Buxoro viloyatidagi kollektorlar suvining tarkibi xloridli-sul'fatli-magniyli-natriylidir.

T.V.Vasigov (1971) mikroskopik suvo`tlarini o`stirish uchun qo`y go`ngidan foydalanishni taklif qilgan. Xlorokokk yashil suvo`tlarini qo`y go`ngidan tayyorlangan sharbatga ekilganda, ularning o`sib rivojlanishi mineral ozuqa muhitdan ham yuqori bo`lgan. A.M.Muzafarov va boshqalar.(1974) [17] xlorella va stsenedesmusni o`stirish uchun parrandalar va pilla chiqindisidan

foydalishni taklif etgan. "04" mineral ozuqa muhitga organik chiqindilardan qo`shib, tayyorlangan ozuqa muhitda suvo`tlarini o`sishi yaxshi bo`lgan. Xlorella va stsenedesmus hujayralarining kattalashganligi kuzatilgan. Parranda go`ngidan tayyorlangan sharbatning kontsentratsiyasi 6-10 g/l bo`lganda, suvo`tlarining hosildorligi bir kun ichida 1 m³ suvda 17,5-33 quruq moddani tashkil etadi. Markaziy Osiyo baliqchilikka ixtisoslashgan hovuzlarning suvo`tlar florasi dastlabki ma'lumotlar K.E.Hirn va C.N. Ostenfeld larning ishlarida uchraydi.

K.E.Hirn[36] ning ko`rsatishicha, Norin daryosining yuqori qismlarida hovuzlarida suvo`tlarining 56 ta turi uchrashini ta'kidlaydi. Ularga misol qilib *Spirogyra weberi*, *Diatoma hiemala var mesedon*, *Synedra acus*, *Eunotia diodan*, *E roeripta* larni misol qilib keltirib o'tish mumkin.

C.N.Ostenfeld[37] Sirdaryo havzasidagi daryo, ko' va havzalarda suvo`tlarni 127 turini keltiradi. *Cylindrospermum stagnale*, *Ankistrodesmus longissimus*, *Stephanodiseus astrola*, *Amphiphulora pellucidashular* jumlasidandir.

A.M. Muzaferovning ta`kidlashicha, Urgut buloqlari anchagina yirik, 70 sm gacha tiniq, yuza hosil qilib, suv harorati 180°C gacha etadi. Planktonlar deyarli uchramaydi. Namunalarda diatom suvo`tlardan: *Synedra biceps*, *Gyrosigma* sp., *Nitzschia sigmoidea*, *Cymotopleura solea*, *Surirella bisseriata*, *S.elegans*, *Campylodiscus noricus* var. *hibernicus* lar uchraydi. Suv tubida esa, *Chara* va *Fontinalis* o`sadi, shu joyda spirogirani 1 turi, diatomlardan 16 tur borligini aytib o`tgan [17].

V.I. Polyanskiy Samarqand shahridagi ba`zi sug'orish kanallari, ko`lmaklar va hovuzlardan al'gologik namunalari to`pladi. Bu namunalardan suvo`tlarning 25 turini aniqlab, ularni qisqacha tavsifini berdi. Ularning 3 turi xivchinlilar, 9 yashil suvo`tlar va 13 turi ko`k-yashil suvo`tlar hisoblanadi. 1963-1964 yilda P.N.Saksena[24], [25] Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi Kalgan-Chirchiq baliqchilik xo`jaligi hovuzlarini o'rGANILGAN. Ma'lum jami o'rGANILGAN 12 ta hovuzdan suvo`tlarni 522 ta tur xillarini aniqlagan. Aniqlangan turlardan 40% diatomlar, 33% yashil suvo`tlar, 16% ko`k-yashil suvo`tlar egallagan bo'lsa, qolgan qismini evglena, oltin tusli, pirofit suvo`tlari tashkil etgan. Algosenozda

Palmila microscopika, *Pediastrum duplex*, *Cocpocuctimplancnoniea*, *Mikrocystik aeruginosa*, *Comphosphoeria lakustris*, *Melosira granulata* kabi turlar dominantlik qiladi.

Turkmanistondagi Qayroqqum kanali hududida joylashgan baliqchilik hovuzlaridagi fitoplanktonlar N.Kanoda[12], [13]tomonidan o'rganilib u joylardan 77 ta tur va tur xillari aniqlandi. Ularni 13 ta turi ku'k-yashil, 11 ta turi diatom, 2 ta turi oltin tusli, 3 ta turi pirofit, 2 ta turi evglena va 46 turi yashil suvo'tlaridir. Azot, fosfor kabi mineral o'gitlar ta'sirida *Coelastrum retukulatum*, *Sehroederie murusmomedia*, *Punktata mogul* rivojlangan.

Olma-Otadagi baliqchilik xo'jaligiga boqilayotgan oq amur balig'ning oziqlanishini o'rgangan M.D.Rozanova [16] uning chavoqlik davridan voyaga yetgan davrigacha suvo'tlarini rolini o'rgangan. Xovuzlarda azot va fosfor kabi o'g'itlarni qo'llash natijasida *Pediastrum oryonum*, *Scenedusmus puadcauda*, *Volvox globator*, *Eudorina elegans*, *Carteria globosa* kabi suvo'tlar dominantlik qilgan.

A.E.Ergashev ma'lumotlariga ko'ra[16], [17], qazilgan hovuzlarda *Spirogyra calospora*, *Sp. classa*, *Manguatea punctata*, *Mikrospora* kabi suvo'tlar yaxshi rivojlanadi.Ularning 1m^2 yuzadagi biomassasi 1 kg og'irlikni tashkil etadi.Bu joylarda *Chara contraria* aniqlangan yozda *Palmella miniotadominantlik* qildi.Uning soni 1sm^3 suvda 10-11ming nusxani qishda esa ancha kamayib 2150 nusxani tashkil etdi.

Hovuzda aniqlangan fitoplanktonlar tarkibida quydagi suvo'tlar uchraydi:*Ceratium hirundinella*, *Euglena acus*, *E.oxyuris*, *Phociscoudatis codatus*, *Glolacapsa mantona*, *Oscillatoria limosa*, *O. tenuis*, *Navicula radiosha*, *Nitzshia microurphola*.

Tiniqlik 30-40 sm bo`lsa, suv quyiladigan joyda 5- Surxonbiologik hovuz viloyati Denov tumanidagi suvi quyilib to`ldiriladigan hovuzlar mavjud bo`lib, eni 65-70 dan 125-130 m gacha, uzunligi 1 km ni tashkil etadi. Bu orada ikkita to`g'on mavjud. Hovuzlarning suvining tiniqligi turli fasllarda turlicha. To`g'on yonida 10 sm ni tashkil etadi[23], [24].

Xovuzlar suvining minerallari 212 mg/l, yong'inlar davrida ba`zan 1154 mg/lgacha etadi. Bu grunt suvlarining ko`tarilishi bilan izohlanadi. Bunda asosan SO4²⁻ va SO²⁻ anion va kationlaridan iborat.

Xovuzlarda kuchli filtrlanuvchi oziqa muhitiga o`ta kambag'al gruntda barpo etilgan. hovuzlar suvining hajmi tezda o`zgarib turadi. Suv hajmining o`zgarishi uning tiniqligi, harorati vaboshqa ekologik xususiyatlariga keskinta`siretadi. Bularning barchasi fitoplanktonlarning son va miqdor jihatdan rivojlanishiga aks ta`sir etadi. Xovuzlarda yuksak suv o`simliklari juda kam tarqalgan. Ayrim joylarda qamish yakka-yakka holda o`sgan.

Fitoplankton ancha kam. Plankton namunalardan 25 tur va tur xillari aniqlangan. Ularning 6 turi ko`k-yashil, 7 turi yashil, 12 turi diatomlardir. Bularning birortasi ommaviy tarzda rivojlanmagan. Ko`pchiligi yakka-yakka uchradi. Bularga *Oscillatoriaamoena*, *O. geminate*, *Phormidiumcorium*, *Closteriumparvulum*, *Scenedesmusacuminatus*, *Dictyosphaeriumpulchellum*, *Naviculacincta*, *Achnantheslanceolata* va boshqalar kiradi.

Bu hovuzlarda fitoplanktonning kamligi suvdagi tiniqlik, harorat va minerallar miqdorining pastligi bilan tushuntirib o`tgan.

Olim yana Qashqadaryo biologic hovuz viloyati Yakkabog' tumanidagi 1958-1959 yillarda qurilgan hovuzdagi fitoplanktonlarni ham o`rgangan. hovuzlarning chuqurligi 1-1,5 m dan 3,5-4 m ga etadi. Suvning tiniqligi o`rtalarida 2-2,5 ni tashkil etsa, chetlarida 1-1,5 m dan oshmaydi. Suvning harorati turli fasllarda turlicha bo`lishi kuzatilgan[23], [24]. Suvdagi ionlar miqdori bahorda 11, 370 g/l ni tashkil etsa, kuzda 16, 470 g/l ga etadi. Ionlardan asosan SO₄, Mg iborat. Ammoniy nitrat 0,72 dan 0,79 mg/l bo`ladi. Suvdagi tuzlar miqdorining bu qadar ko`pligi tuproqning sho`rligi va grunt suvlari tarkibidagi tuzlarning ko`pligi bilan izohlangan.

Fitoplanktondan 51 tur va tur xillari aniqlangan bo`lib, ulardan 12 turi ko`k-yashil, 2 turi yashil, 3 turi evglena va 34 turi diatom suvo`tlardir. Ulardan *Chlorellavulgaris*, *Oscillatoriageminate*, *O. laetevirens*, *Euglenaoxyuris*, *Mastogloiasmithii*, *Nitzschiasigma* va boshqalar dominantlik qilgan.Bir qator

olimlarning ma'lumotlariga ko'ra[18], [19], [16], [11] Markaziy Osiyo sharoitiga ko'ra baliqlar asosan dekretlar plankton-bentos suvo'tlari, suv botqoq o'simliklari bilan oziqlanadi. Farxod suvomborida qamish, qo'g'a, redest, suvayiqtovonikabi o'simliklar ko'p uchraydi. Bundan tashqari baliqlari chavoqlari oziqlanish uchun fitoplankton va fitobentos suvo'tlari dominantlik qiladi.

Farg'ona vodiysi Namangan viloyati hududida joylashdan Kalgandaryo ko'lida tadqiqot olib borgan T.B.Vosvegov va boshqalarni ma'lumotiga ko'ra,bu joydan suvo'tlarning 59 ta tur va tur xillari uchraydi.Ulardan 18 tasi ko'k-yashil, 1 tasi pirofit bittasi esa oltin tusli, 22 tasi diatom, 2 tasi evglena, 11 tasi yashil va 4 turi xara suvo'tlari xisoblanadi.

Fitoplanktonda quyidagi suvo'tlar ko'p uchraydi:*Oscillatoria prinkeps*, *O. nigra*, *O. tenues*, *Borzia trilacularis*, *Hormidium ambiguum*, *Nodularia spumigena* *Peridinium cinctum*, *Nitzschia acicularis*, *N. porvula*, *N. palea*, *Navicula tuscula*, *Diatoma hiemale*, *Nedium produktum*, *Navicula cuspidate*, *Cyclotella*, *comta*, *Stouroncis phoenicontron*, *Siderocystis fusca*, *Coenococcus plantonica*, *Tetraedron triungilare*, *Ponderina morum*, *Chlomydomonas globosa*, *Clostrium acerosim* va boshqalar. Bu havzada xara suvo'tlaridan Nitellopsis obtuse, Chara domonii. Ch aculeilate lar tarqalgan.

F.K.Komilovning ma'lumotlariga ko'ra laqqa, zog'ara, cho'rtan, leshch, qizilqanot va boshqa baliqlar turlari yashaydi. Yuqori nomlari keltirib o'tilgan suvo'tlar chuqur ushbu baliqlarni rivojlanishida kata ahamiyatga ega.

Qирғизистон Республикаси Ош вилояти ҳовузларидаги suvo'tlarining *Melosira granulate.var angustissima*, *Pediastrum duplex*, *Diktyosphaerium anomalum*, *Cocnacystis planktonika*, *Cocnococuc planctonica*, *Chlomydomonenes proboscigera*, *Synedra ulna*, *Golencinia rediota*, *Scenedesmus opoliensis*. Бу ҳовузларда ухраган suvo'tlarni rivojlanishi sunning tiniqligi, tuzlar miqdori, o'g'itlash rejimi va ҳовузнинг chuqurligi hamda maydonga bog'liq[23], [24].

Markaziy Osiyodagi va ko'llar uchun xos suvo'tlar *Microcystis aeruginosa flos-aqua*, *Oscillatoria granilalabuturlar* suv havzasini gullatishi haqida aytib o'tilgan.

Ko'pchilik suvo'tlar Markaziy Osiyoning yoz oylarida haroratning yuqori bo'lishi, organik moddalarni kamligi, tuz miqdorini balandligi, biogenlarni suniyravishda ko'yayib borishi yuqorida aytib o'tilgan suvo'tlar turlarini haddan ortiq ko'payishiga, boshqalarni esayo'qolishiga sabab bo'ladi. Markaziy Osiyoning hovuzlarida ayrim tur va tur xillari yil fasllarining ma'lum vaqtida rivojlanadi, ko'pchilik suvo'tlar yil fasllarining barcha vaqtida deyarli o'zgarmagan vaqtida uchraydi.

Baliqchilik xovuzlari algoflorasi va ularning rivojlanishida tashqi muhit omillarining roli to'g'risidagi so`nggi ma'lumotlarni Alimjanova X.A. [1] keltirib o'tadi. U Kalgan-Buxoro va Damashi baliqchilik xo`jaliklari xovuzlaridan suvo`tlarning 601 turi aniqlagan. Ular 8 bo`limga mansub bo`lib, 103 turi ko`k-yashil, 1 turi qizil, 5 turi sariq-yashil, 8 turi oltin tusli, 242 turi diatom, 5 turi dinofit, 44 evglena, 193 turi yashil suvo'tlar hisoblanadi. Kalgan-Buxoro baliqchilik hovuzlarida indikator-saprof suvo`tlarning 195 turi uchraydi. Uning saproflik indeksi 1,95 ga teng.

Zarafshon biologik hovuzi o'rta oqimi va ayrim suv havzalari algoflorasi va ularning rivojlanishiga ekologik omillarning ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni Toshpo`latov Y.SH. [26], [27] ishlarida kuzatish mumkin. U bu hududdan suvo`tlarning 331 tur va tur xillarini aniqlagan. Ularning 64 turi ko`k-yashil, 218 turi diatom, 10 turi evglena, 2 turi pirofit va 37 turi yashil suvo`tlardir. Donaboyev Sh.(2012) Samarqand viloyati Payariq tumanidagi baliqchilik xo`jaliklari algaflorasi birinchi marta o'rganilayapti. Undan tashqari baliq boqiladigan hovuzlarda tarqalgan fitoplanktonlarni mavsumiy dinamikasi va ularni yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida xulosa qilish mumkin, Buxoro shahri oqova suvlari tarkibidagi indikator -saprof suvo'tlar o'rganilgan emas.

1.2. Indikator saprob suvo'tlarining ba'zi biologik xususiyatlari

Suv havzalarining ifloslanishi ikki xil bo'ladi: birlamchi va ikkilamchi iflosliklar. Birlamchi iflosliklarning asosiy manbai insonlarning turmushdagi va ishlab chiqarishdan klib chiqqan oqova suvlarni tashkil qiladi, shuningdck, yer sathidan oqib tushadigan iflos suvlar ham birlamchi iflosliklar jumlasiga kiradi. Ular tarkibida tuproqdan va tuproq mikroflorasidan yuvilib chiqqan, inson va hayvonlarning fiziologik qoldiqlaridan kelib chiqqan organik va mineral moddalar va turli mikroblar bo'ladi.

Suv toshgan va yog'ingarchilik paytlarda suv havzasi sohillarining ba'zi joylari o'zidagi o'simliklar bilan birga suvga botib ketadi. Bu jarayonlar bilan bir qatorda o'simlik qoldiqlari samarali ravishda chirib ham tushadi. Oqibatda suv havzasiga deyarli katta miqdorda organik moddalar tusha boradi. Shahar kanalizatsiyasining oqova suvlarini bilan birga suv havzalnriga katta miqdorda chala oksidlangan (asosan, qiyin oksidla nadigan) organik moddalar ham tushadi. Bundan tashqari, faol balchiqning muallaq harakatlanuvchan qoldiqlari (turlituman mikrob va sodda hujayralar), anorganik birikmalar, biogen elementlar (azot va fosfor)ning og'ir metallarning tuzlari ham, chunonch i sulfatlari, xlorid va hokazolar ham suv havzalariga kelib tushadi. Ular ichida o'zi zaharli bo'lmasa ham monokarbon kislota, merkaptanlar, vodorod sulfid kabi zaharli m oddalar keltirib chiqaradigan moddalar ham uchraydi.

Suv havzaiari uchun ayniqsa sanoat korxonalarining oqova suvlarini katta xavf tug'diradi. Bu oqova suvlaming havzalarga oqib tushishi natijasida nihoyatda xilma-xil iflosliklar paydo bo'ladi. Ularning ba'zilari sianidlar, mishyak va fenol birikmalari gidro- b ionlari ruchunanzahar hisoblanadi, boshqalari, masalan, kletchatka va lignin (selluloza kombinatlari oqova suvlarining ajralmas komponentlari) zaharli bo'lmasa ham, ular zaharli moddalar ishlab chiqara oladi. Sanoat korxonalarining oqova suvlaridan suv havzalariga ba'zi mikroorganizmlar, masalan, achitqi (xamirtu rush)lar ham tushadi. Odamlar va

hayvonlarning suvda cho‘milishlari natijasida ham suv havzalariga bakterial iflosliklar tushadi.

Suv havzasining ikkilamchi iflosliklari — suvdagi organizmlarning chirishidan kelib chiqqan ifloslik keng kam xavf tug‘diradi. Fitoplanktonning ma’lum faslda rivojlanishi va uning halokati natijasida suv juda ko‘p organik moddalar bilan boyiydi, ulami mineral moddalarga o‘tkazish uchun ko‘p miqdorda kislorod kerak bo‘ladi. Suvosti o‘tlari har qanday sharoitga moslashuvchilar bo‘lganligi uchun, har qanday suv havzasidan ham uglerodli ozuqa manbayini topa oladi. Ularning rivojlanish darajasini ta’minlovch i omil suvda biogen (y a ’ni azot va fosfor) elementlarining birikmalarini kamligi hisoblanadi. Shunday qilib, suv havzaga biogen elementlar birikmalarining kiritilishini to’xtatib, suvosti o’tlarning ortiqcha rivojlanishini to’xtatish ham mumkin.

Suv havzasining ifloslanish darajasi shu suvda bor bo‘lgan organik birikmalarning miqdoriga va ularning tabiatiga bog’liq. Bu bog‘lanish shundan iboratki, ifloslanishning har qaysi darajasiga biror maxsus turdagি organizmlarning rivolanishi munosib keladi. Tarkibida ma’lum miqdor organik moddalari bor biror ifloslanish darajasidagi muhitda organizmlarning rivojlanish xususiyati ayni organizmning saprobligi deb ataladi. Suv havzasining ifloslik darajasi ayni muhitda ma’lum saproblikda yashovchi organizmning saprobligi bilan tasvirlanadi. Ifloslanish darajasiga qarab, barcha suv havzalari yoki ularning zonalari: poli-, mezo- vn oligosaproblarga bo‘linadi. Polisaprob zon a (kuchli ravishda ifloslangan zona) o ‘zida katta m iqdor beqaror organik birikm alar bortigi va kislorodning deyarli yo‘qligi bilan tavsiyalanadi. Shu sababdan bu zonadagi biokimyoviy jarayoniar anaerob tabiatga ega. U joydagi suv havzasi (suv)da organik moddalarning anaerob yemirilish mahsulotlari C02, N2S, CH 4 mavjuddir. Suvning 1 ml da bakteriyalar soni ko‘pgina millionlarga yetishi mumkin .Bunday zona sharoitida geterotrof o’simlik organizmlar: turli- tuman saprofit bakteriyalar, ipsimon bakteriyalar, suv o’simliklari jumlasidan Evglena viridis, zamburug’ Mardan Fusarium adualductum yoppasiga rivojlanadi. Polisaprob zonaning hayvon organizmlari jumlasiga kiruvchilarning eng muhimlari mayda, rangsiz

infuzoriyalar *Colpidium colpoda*, *Votricolla microstoma*, bir hujayrali mikroblar (amyobalar) *Pelornyx palustrus* lardan iboral. Bentos mikronufus asosan, anaerob saprofil bakteriyalar *Tubifex*, *Limnodrilus*, *Chironomus plumosus* hasharot chivin lichinkalaridan iborat.

Mezosaprob zona (ya'ni o'rta darajadagi ifloslanish zonasi) a (alfa) va p (beta) saprob zonachalarga boMinadi. Ularning birinchisida organik m oddalarning oksidlanish jarayoni sodir bo'lib, bunda ammiak hosil bo'ladi. Bu zonada kislorod bor (lekin yetarli emas). Bu zonada, asosan, kislorod tanqisligiga bardosh beradigan organizmlar istiqomat qiladi. Ko'pchilikni geterotrof bakteriyalar sianobakteriyalardan *Oscillatoria*, diatomlardan *Navicula lanceolata* Ag., *Stephanodiscus hantzschii* Grun., Her, *Nitzschia palea* (Kütz.) W. Sm., *Stephanodiscus* sp. sp., yashil suvo`tlardan tashkil topadi. Bu ycrda yashovchi hayvonot organizmlari jumlasiga ko'p sonli infuzoriyalar (*Paramecium caudatum*, *Opercularia coanctata*) kolovratkalar (*Rotaria*), jgutli past qisqichbaqasimon (*Daphnia magna*, *Daphnia pulex*)lar kiradi. Balchiqlarida ko'pgina oligoxetlar, xironomid lichinkalari uchraydi. Ikkilamchi mezosaprobzonachada oson oksidlanadigan organik birikmalar deyarli sira uchramaydi. U suvlarda ammiak va uning oksidlanish hosilalari — nitrit va nitratlar uchraydi. Bu suvlarda kislorod miqdori katta qismni tashkil qiladi. Bu muhitda avtotrof organizmlar rivojlanadi, chunonchi, sianobakteriyalar (*Anabaena*), yashil tusli (*Scenedesmus*), *Actinastrum hantzschii* Lagerh. va diatom (*Melosira*) suv o'simliklar, nitratlovchi bakteriyalar rivoj topgan. Eng sodda hayvonlardan infuzoriyalar va tomiroyoqlilar rivojlanadi. Boshqa plankton hayvonlardan kolovratka va qisqich-baqasimonlar rivojlanadi. Zonaning tagida bakteriyalar juda ko'p turdag'i chuvalchanglar, turli hasharotlar lichinkalari, molluskalar ishtirokida shiddatli ravishda minerallanish jarayonlari sodir boMadi. Makrofitlar (shox barglilar) paydo boMadi. Oligosaprob (toza suv) zonada suvda erigan organik moddalar deyarli uchramaydi, shu sababdan bu joylarda, asosan, avtotrof organizmlar rivojlanadi. Kislorod miqdori to'yinish darajasiga yaqin qiymatga ega miqdorda uchraydi. Bu zona nitratlanish jarayonlarining tugallanishi bilan tavsiflanadi. Bakteriyalaming umumiy miqdori 1

ml da mingta, yuzta, hatto o'ntagacha kamayib ketadi. Mikroorganizmlaming tur o'zgarishida katta xilma-xillik kuzatiladi. Bu zonada suv o'tlardan diatomik (*Cymbella*) va yashil suvo`tlardan *Anabaena spiroides* Kleb., *Ulotrix* zonata, oltin tusli suvo`tlardan *Chromukina ovalis* uchraydi.. U m um an polisaprof zonadan oligosaprof zonaga o'tishda mikroblarning xillari ko'payib, miqdor kamayadi.

Toshpo`lotov Y. (2015) ma`lumotiga ko`ra Zarafshon quyi oqimida bahorda saproblifik indeksi nisbatan yuqori (1,67), qishda past (1,22), yoz (1,47) va kuz (1,52) oylarida oraliq ko`rsatkichga ega. Saproblifik chegarasiga ko`ra bahorda mezosaprof, qolgan fasllarda esa oligosaprof . O`rtacha saproblifik indeksi 1,47 ga teng, ya`ni oligosaprof. Biologik hovuz oqimi bo`ylab suvning fizik-kimyoviy va ekologik xususiyatlarining turlicha bo`lishi suvo`tlarning va shu jumladan indikator-saprof turlarni tarqalishi va rivojlanishiga turlicha ta`sir ko`rsatgan. Biologik hovuzning boshlanish qismidagi nuqtalarda suvning harorati 2-3 OS dan (qish) 22-23 OS gacha (yozi), oqim tezligi 0,55-0,25 m/sek dan (qish) 1,50-1,55 m/sek gacha (yozi), suvning tiniqligi 0,08-0,15 m dan (qish) 0,20-0,30 m gacha (yozi), umumiyy minerallar miqdori 300,5 mg/l dan 305,0 mg/l gacha, rN 7,3-7,5 o`zgarib turdi. Bu nuqtalarda jami 119 tur bo`lib, shundan 37 turi (31,09 %) indikator-saprof turlari hisoblanadi. Bu qismdagi o`rtacha saproblifik indeksi 1,27; oligosaprof, sinfi va razryadi 2-2b; tozaroq.X. Olimjonova(2015)ning ma`lumotlariga ko`ra CHimkentning biologik hovuzlarida uning sanitar holati oqova suvining ifloslik darajasining ko`rsatuvchi suvo`tlarning 78 ta indikator turlari aniqlangan. Saprob organizmida ksero saproblar-1, oligomezosaproblar-5, beta-mezasasaproblar-30, al'fa-mezasaproblar-14,polisaproblar- 5, beta mezasaproblar-6, alfa-polisaproblar-1, poli-al'fa-mezasaproblar-3, poli-beta-mezasaproblar-1, kseno-beta-mezasaproblar-1dan topilgan. Biologik hovuzlarning eng iflos oqova suvlar tushadigan boshlang'ich qismida polisaprof kabi ifloslikni yuqori darajasini ko`rsatuvchi indikatorlar rivojlansa, hovuzlarning oxirgi qismida tozalangan darajasini ko`rsatuvchi oligo-mezasaproblar, oligo-beta mezasaprof organizmlar ko`plab rivojlanadi. Ularning tarkibi, o'sishi, ko`payish darajasi fasllar bo`yicha o`zgarib turadi.

2 -BOB. TADQIQOT OLIB BORILGAN JOYNING FIZIK-GEOGRAFIK TAVSIFI. TADQIQOT OB'EKTI VA METODLARI

2.1. Tadqiqot olib borilgan joyning xususiyatlari

Buxoro viloyati O`zbekiston respublikasining janubi-g`arbida Zarafshon daryosining quyi qismida, janubi-g`arbiy Qizilqum cho`l maskanida joylashgan. U shimoli-g`arb tomondan qisqa masofada Xorazm viloyati va Qoraqalpog`iston Respublikasi bilan tutash. SHimol va sharq tomondan katta masofada Navoiy viloyati "qal`asi" bilan o`ralgan bo`lib, janubi-sharqiy tomondan Qashqadaryoning qarnob Qarshi cho`llariga yondoshdir. Viloyatning janubi-g`arbiy chegaralari juda katta masofada Turkmaniston davlati bilan bo?lanadi. Bu erda chegara Amudaryoga o`ng tomoni bilan yondoshib boradi va Doyaxotin - Qizilrabot oralig`ida (80 km) esa daryo o`zani bo`ylab o`tadi. Bugungi kunda bu chegara juda muhim ma`naviy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmunga ega. hozirgi kunda viloyatning er maydoni 40,4 ming kv.km. ni tashkil qiladi. Lekin yaqin davrlargacha bu ko`rsatgich katta edi - 143,1 ming kv.km. turli sabablarga ko`ra keyingi o`n yil ichida viloyatga tegishli ma`muriy chegara to`rt marta o`zgartirildi. Ma`lumki, Zarafshon vodiysining quyi qismi, ya`ni Karmana tog` oralig`i Darvozasidan to Amudaryo sohiligacha cho`zilgan. Bu joy tabiiy, tarixiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yaxlit bo`lgan zamindir. Mavjud uchta vohaning (Navoiy-Konimex, Buxoro va Qorako`l) sug`orish zavur tarmoqlari bir-biriga payvand bo`lib, yagona zanjirni tashkil qiladi.

Viloyatning hozirgi ko`lami nisbatan kichik joy emas. U Andijon viloyati maydonidan (4,2 ming kv.km) 9-10, Toshkent viloyatidan (15,6 ming kv.km.) 2,5 marta yirikdir. Lekin viloyat hududini to`lig`icha cho`l zonasida joylashganligi, mahalliy sug`orma suv manbalariga ega emasligi, buning ustiga daryoning quyi qismida bo`lishi o`lka tabiatining salbiy sifatlaridan sanaladi. Zarafshon daryosi orqali keladigan oqova va kollektor-drenaj suvlari unda erigan tuz-kimyoviy ashyolar viloyat hududiga oqib keladi va ularning aksariyat qismi shu zaminda to`planib qoladi. Buning oqibatida ekologik vaziyatni borgan sari keskinlashuviga

sabab bo`lmoqda. SHuning bilan bir qatorda viloyatning geografik o`rni uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun qulay imkoniyatlarga ega. Bu maskanni qadimda "Ipak yo`li" ustida joylashganligi, keyinchalik SHarqdagi "?ubbat-ul islom" - islom ta`limotining gumbaziga ilm, ma`rifat va madaniyatning "Minorai Kaloniga" aylanganligi uning geografik o`rni bilan ham bevosita bog'liqdir.

Viloyat hududi aksariyat tekisliklaridan iborat bo`lsada o`ziga xos murakkab geologik tarixga ega. Bu zamin epigertsin (gretsindan keyingi) platforma ustida joylashgan. Dastavval paleozoy erasigacha bu joy ham O`rta Osiyo o`rnidagi serharakat geosinklinal dengiz havzasidan iborat bo`lgan. qalin dengiz yotqiziqlarining to`plana borishi bilan birga tektonik harakatlar jonlanib turgan. Kembriy davrida shimol-shimoli-g`arb tomonga yo`nalgan qator chuqur tektonik yoriqlar hosil bo`ladi. Paleozoy erasining ikkinchi yarmida ro`y bergen. qudratli gertsing burmalanishi nisbatan osoyishta bo`lgan tektonik vaziyatni tubdan o`zgartirib yubordi.

To`rtlamchi davrning eng oxiri hisoblangan golotsen (Zarafshon kompleksi) davri yotqiziqlari katta maydonlarda tarqalgan. Zarafshonning 1-2 terrasalari, qadimgi daryolarning quruq o`zan-qayirlari shu davrga mansubdir. Echkiliksoy, Daryosoy, Moxandaryo, Qashqadaryo kabi irmoq va tarmoqlarning quruq o`zanlarini yondosh erlar, Tudako`l-Xojkobi pastqamlıkları, Buxoro-Qorako`l vohalari o`rni golotsen davri jinslari bilan qoplangandir.

Amudaryo, Zarafshon va Qashqadaryolarning bir-biridan ajralishi gelotsenning oxirida ro`y beradi. Arxeolog A.Muxammadjonovning (1987) [121] xulosasiga ko`ra miloddan oldingi II ming yilligi davrida Zarafshonning Moxandaryo orqali Amudaryoga quyilishi barham topgan. Uzluksiz sug`orish tufayli hosil bo`lgan. Buxoro va Qorako`l vohalaridagi sug`orma qatlam eng yosh jinslardir. Ularning qalnligi sug`orilish davriga ko`ra 1-3 metr, ayrim joylarda esa undan ortiqdir. Buxoro shahri hududida madaniy qatlamning 18,5 metrga etishi va shahar yoshining 2500 yilga teng ekanligi arxeologlar tomonidan aniqlandi.

Viloyat iqlimi bir necha omillarning o`zaro hamkorligi ta`sirida vujudga keladi. Lekin o`lka hududini geografik o`rni bu borada yetakchi ahamiyatga

molikdir. Agar O`rta Osiyo o`lkasini Evrosiyo materigini ichki qismida joylashganligi, Buxoro viloyati hududi esa O`rta Osiyo cho`llarining salkam o`rtasidan o`rin olgan bo`lib, Janubiy (subtropik) cho`llarga xos iqlimi y xususiyatlarga egadir. Xulosa qilib aytganda viloyat hududi uchun subtropik belgilariga xos bo`lgan keskin kontinental cho`l iqlimi xarakterlidir. Kecha bilan kunduz, qish bilan yoz haroratlari o`rtasidagi keskinlik, nisbatan sernam, injiqli bahor, uzoq (VI-XI oylar), quruq, jazirama issiq, o`ta yorug' yoz, qisqa (X-XI oylar) va turg'unsiz kuz, iliq ba`zida ayozli muhim bo`lmagan qish, iqlimning asosiylaridir (3.1-jadval). Viloyat serquyosh o`lkalardan biri hisoblanadi. Yil davomida quyoshli damlar 2800-3000 soatga etadi (Toshkentda 2852, Termizda 3053 soat). Quyoshdan keladigan radiatsiyaning yalpi miqdori 150-160 kkal ga teng. Foydali haroratning ya`ni o`rtacha kunlik musbat 10 darajadan ortiq bo`lgan haroratning yillik yig`indisi 4800-5100 darajaga boradi. Bu hol o`ta issiqsevar madaniy o`simliklar etishtirish imkoniyatini yaratadi. Viloyatda eng sovuq muddat yanvar, eng issiq esa iyul oylari hisoblanadi.

O`rtacha yillik harorat Buxoroda 14,2, Qorako`lda 15,0 darajaga teng. Viloyat hududida tabiiy namlik etarli emas.

Atmosfera, yog`inlarning yillik miqdori 90-150 mm. ni tashkil qiladi. Er betidan mumkin bo`lgan parlanish 2000 mm. gacha etadi(1-jadval) Bu jihatdan Buxoro hududi o`ta qurg`oqchil (arid) zonaga mansubdir. Yog`inlar aksariyat yomg`ir tarzida namoyon bo`ladi. qor qoplami surunkali va qalin bo`lmay uzoq saqlanmaydi. Yog`inlarning yil davomida taqsimlanishi nihoyatda notekisdir. Bahor nisbatan eng sernam fasl bo`lib, yillik yog`inning 45-55 foizi shu muddatga to`g`ri keladi. Yoz o`ta quruq. Havoning nisbiy namligi juda pasayadi, iyul-avgust oylarining ba`zi kunlarida bu ko`rsatgich 10-20 foiz kamayadi. O`lkamiz iqlimida mahalliy shamollarning alohida o`rni katta. Ma`lumki Er sharining hamma joylarida shamollarni kuzatish mumkin. Lekin ularning ta`siri aynan cho`l zonasida kuchli namoyon bo`ladi. Bu erdag'i issiq, qurg`oqchil iqlim va yarim yalong`och qaqragan tuproq yuzasi shamollarning yaratuvchilik kuchiga qulay imkoniyatdir.

jadval 1

**Buxoro viloyati va unga yondosh joylarda havoning o`rtacha oylik
harorati, daraja hisobida**

	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Buxoro	- 0,0	2,6	8,3	16,4	22,2	22,6	28,0	25,4	20,0	13,0	6,4	2,2
Qorako`l	0,4	3,4	8,9	16,7	23,1	27,5	29,3	26,8	21,1	13,9	6,7	2,0
Oyoqog`itma	- 0,6	1,0	7,5	15,9	23,1	28,6	31,3	28,7	22,1	13,6	5,7	0,4
Jing`ildi	- 0,1	2,3	7,9	16,6	23,7	29,0	31,5	29,1	23,1	14,4	7,1	2,1
Navoi	1,0	3,8	8,4	15,8	21,7	26,3	28,3	25,9	19,9	13,3	7,1	2,7
Tomdi	- 2,5	0,2	6,3	15,2	22,3	27,7	30,4	27,9	21,2	12,7	4,8	- 0,9

Umuman olganda viloyat iqlimi resurs sifatida bebahosiga tabiiy

boylikdir. Ayniqsa quyoshli damlarning, foydali haroratning etarlicha bo`lishi o`lka iqlimining ijobjiy sifatlari hisoblanadi. Viloyat hududi cho`l zonasida joylashganligi tufayli doimiy oqadigan suv manbalariga ega emas. Miqdori kam bo`lgan atmosfera yog`inlari aksariyat maydonda oqimlar hosil qilmasdan er ostiga shimaladi, parlanadi va o`simliklarni o`sishiga sarf bo`ladi. Bahorda ba`zan qishning seryomg`ir pallalarida Quljuqtog` tizmasi, Jarqoq, Saritosh platolar bag`ridagi kichik-kichik soylar qisqa muddatda "jonlanadi". Ularning suvlari uzoqlargacha etmasdan yo`l-yo`lakay sarflanib tugaydi. Buning ustiga bu umri qisqa suvlarning yemirish ishlari, qum va gil oqiziqlari talaygina maydonidagi o`tloqlarni nobud qiladi. Xuddi shu pallalarda viloyatning cho`l zonasidagi taqirli maydonlarda yomg`irlar hisobidan suv jilg`alari va xalqobchalar hosil bo`ladi. Vaqt o`tishi bilan bular ham "g`oyib" bo`ladi. O`tmishda tadbirkor chorvadorlar bunday mahalliy suv manbalaridan samarali foydalanganlar. Bugungi kunda


yuqorida qayd qilingan suv manbalaridan ota-bobolarimiz tajribasi asosida unumli foydalanishni yo`lga qo`yish ahamiyatlidir.

Buxoro viloyatining suvgaga bo`lgan talabi azaldan tog`li erlar hisobidan to`yinadigan Zarafshon daryosi hisobidan qondirilgan. Daryoning yuqori qismida suvgaga bo`lgan talabning orta borishi tufayli viloyat hududiga yetib keladigan Zarafshon suvining ulushi yillar sari kamayib keldi. Karmana tog` oralig`i yo`lagida uning o`rtacha yillik suv sarfi 1980 yillargacha 100-120 kub. metr sekundni tashkil qilgan bo`lsa, 1990 yillarning boshlarida esa 70 kub. metr sekund atrofida bo`ldi xolos. Hozirgi kunda daryo suvi Navoiy viloyati hududi doirasida batamom tugaydi. Zarafshonning Buxoro viloyatidan o`tgan qismi Markaziy Buxoro zovuri deb nomlangan, oqova va kollektor suvlarini oqizadi.

Zarafshonning quyi qismida vujudga kelgan suv tanqisligi Amu-Buxoro mashina kanalini qazishni taqozo qildi. 1962 yilda Amu-Qorako`l, 1965 yilda Amu-Buxoro kanalining birinchi novbati, 1975 yilda esa ikkinchi novbati (uzunligi 232 km.) foydalanishga topshirildi. Bu kanal Chorjo`y shaqri yaqinidan boshlanib Dengizko`l platasi etaklarigacha o`z oqimi bilan keladi.

2.2.Tadqiqot ob`ekti va metodlari

Tadqiqot ob`ekti Buxoro shahar oqova suvlarni tozalash inshooti bo`lib hisoblanadi. Buxoro oqava suvlarni tozalash aholi punktidan kamida janubda 2,8 km uzoqlikda joylashtirilgan tozalash stansiyalarida olib boriladi(rasm 1). Tozalash inshootlarini joylashtirishda shamol yo`nalishi va kuchini hisobga olinadi. Bu maqsadda shamol yulduzidan foydalaniladi. Oqava suvlar qisman tozalanib bo`lingandan so`ng zararsizlantiriladi va 480-750 km g`arbida joylashgan Sakovich kollektori orqali Dengizko`lga tashlanadi. Ayni paytda inshootda rekonstruksiya ishlari keng ko`llamda olib borilayotganligi tufayli birlamchi va ikkilamchi tindirgich, aerotenkt, xlroratorlar suv tozalash uchun mayjud. Shu boisdan oqova suv sifatida kanalizasiya suvlari orqali kelib tushib to`liq biologic sun`iy(aerotenkd) va biologik biohovuzlarda tozalanadi. Bir kunda 200 ming. m³/sutkada oqova suv tozalanadi. Inshootning umumiylar hajmi 60 ga ni tashkil etadi.



Rasm 1.Buxoro shahar suv tozalash inshootining umumiyy sxemasi

1-Panjara binosi , 2-Qum tindirgich , 3-Birlamchi tindirgich , 4-Aerotenk , 5-Ikkilamchi tindirgich , 6-Xlorator, 7-Qayta qurilish binosi , 8-Labaratoriya

Oqava suvlarni tarkibidagi yirik qattiq narsalardan xoli qilish uchun katta fil`rlardan, so`ngra esa qattiq moddalarni maydalash uchun grinderlar orqali o`tkaziladi. Oqava suvlar oqimi qum, shag`al yoki boshka anorganik fil`trlovchi agent bilan to`ldirilgan panjarasimon kameralardan o`tkaziladi. Kameralarga shuningdek erigan gazlarni haydash va aerob sharoitlar vujudga keltirish maqsadida havo haydaladi. Keyinchalik oqava suvlarga birlamchi ishlov berishda qattiq muallaq zarrachalarning deyarli yarmisi chiqariladi, shundan keyin oqava suvlar ikkilamchi ishlovga taxt hisoblanadi.

Ikkilamchi ishlov organik moddalarning tabiiy parchalanish jarayonlarini eslatadigan mexanik usullar bilan birga biologik tozalash usullarini qo`llashga asoslangan. Oqava suvlar sinchiklab tozalaydigan fil`rlarga yoki turli xil mikroorganizmlarni saqlaydigan biopar-da bilan qoplangan kameralarga tushadi. Mikroorganizmlar organik moddalarni adsorbsiyalaydi va ularni turli tarkibiy qismlarga parchalaydi. Shundan so`ng oqava suvlarga aktivlashtirilgan tindirish metodi bilan ishlov beriladi, bu — rezervuarga bakteriyalar va qisilgan havosi bor loy qo`shish hisobiga aktivlashtiriladi. Olingan aralashma chayqatiladi va 4—10 soat aralashtiriladi. Mikroorganizmlar qattiq zarrachalarda adsorbilanadi va organik moddalarni oksidlantiradi. So`ngra bakteriyalar massasini saqlagan loy rezervuardan oqava suvlar bilan boshqa rezervuarda takror foydalanish uchun haydaladi(rasm).

Birlamchi va ikkilamchi ishlovdan keyin muallaq holdagi qattiq zarralar miqdori va kislorodga biokimyoviy ehtiyoj 90% gacha qisqaradi. Jarayonning kechishi metabolizmga ta`sir qiluvchi harorat va organik kimyoviy moddalar parchalanishida katnashadigan mikroorganizmlar aktivligiga bog`liq. Ikkilamchi ishlov oddiy jonzotlar, bakteriyalar va gjijalarni yo`qotish uchun foydali.


Ma`lumki, aerasiya stansiyalarida oqava suvlarni biologik usulda tozalash paytida panjaralardan va birinchi tindirgichdan nam (xom) cho`kmalar olinadi, ikkinchi tindirgichdan esa faol loyqa olinadi. Bu cho`kmalar tarkibi va fizikaviy hamda kimyoviy xossalari jihatidan biri ikkinchisidan farq qiladi. Nam (xom) cho`kma – bu 6-7 xil moddalardan tarkib topgan suvli suspenziya bo`lib, 75% ni

organik moddalar tashkil etadi. Faol loyqa esa 99% namlikdan va 1m^3 suvda 160 g biomassadan iboratdir.

Shunday qilib, oqava suvlarni tozalash paytida hosil bo'lgan cho'kmalarni zararsizlantirish maqsadida ularni maxsus o'choqlarda kuydirib kukunga aylantiriladi. Ko'pgina holatlarda ushbu chiqindilardan organo-mineral o'g'itlar olinadi va qishloq xo'jaligida ishlatiladi.

Oqava suvlarni tozalash aholi punktidan kamida 500m uzoqlikda joylashtirilgan tozalash stansiyalarida olib boriladi. Tozalash inshootlarini joylashtirishda shamol yo'nalishi va kuchini hisobga olinadi. Bu maqsadda shamol yulduzidan foydalaniлади.

Oqava suvlar to'la tozalab bo'lingandan so'ng zararsizlantiriladi va asosan chorva mollari uchun ozuqa etishtirish uchun yerlarni sug'orishda toza suv bilan ma'lum nisbatda aralashtirilgan holda ishlatiladi(2-rasm).



2-rasm. Kichik aholi punktlarida oqava suvlarini tozalash sxemasi

1-Panjara bilan jihozlangan nasos stansiyasi

2-Qum tutqich

3-Vertikal tindirgich

4-Xlorlash moslamasi

5-Biohavzalar(rasm 3,5)



3 rasm. Birlamchi tindirgich



4 rasm. Aerotenkt



5- rasm. Ikkilamchi suv tindirgich.

Aholi punkti va ishlab chiqarish korxonalarida inson hayot faoliyati va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog`liq bo`lgan turli iflosliklar va chiqindilar vujudga keladi. Bunday iflosliklarga odam va hayvon organizmlarida kechadigan almashinish jarayonlari natijasida hosil bo`ladigan fiziologik chiqindilar, hammom, kir yuvish xonalari, oshxona va boshqa joylardan chiquvchi iflos suvlar va ishlab chiqarish korxonalaridan chiquvchi oqava suvlar kiradi. Ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayon natijasida qattiq va suyuk iflosliklar hosil bo`ladi.

Barcha iflosliklar kelib chiqishi bo`yicha organik va mineral iflosliklarga bo`linadi. Organik iflosliklar to`laa parchalanishi mumkin va mineral tuzlarga aylanadi. Organik iflosliklarni parchalanishi tabiatda 2-xil yo`l bilan borishi mumkin:

- 1) Kislород miqdori yetarli bo`lgan sharoitda - tarkibida uglerod, azot, fosfor, oltingugurt bo`lgan organik moddalar tez oksidlanib (parchalanib) uglerodli, azotli, oltingugurtli va fosforli mineral tuzlarga aylanadi.
- 2) Kislород yetarli bo`lmagan sharoitlarda – organik moddalarning asta chirib borishi yoqimsiz zaharli gazlar ajralishi bilan birga boradi.

Har ikki holda ham jarayon bakteriyalar (aerob – kislородli havoda rivojlanuvchi, va anaerob kislорodsiz ham rivojlanuvchi) ishtiroki natijasida boradi. Organik moddalar barcha turdagи bakteriyalar uchun ozuqa hisoblanadi, shu jumladan kasallik tarkatuvchi bakteriyalar uchun ham. Shuning uchun aholi punkti va korxonalarda hosil bo`luvchi iflosliklarni o`z vaqtida olib chiqib zaxarsizlantirilishi juda muhimdir.

Iflosliklar ikki usul – oqizish va tashish yo`li bilan aholi punktidan tashqariga olib chiqiladiyu Birinchi usulda suyuq iflosliklar quvurlarda aholi punktidan tashqariga chiqarilib tozalanadi, zararsizlantiriladi va qayta sug`orishga ishlatiladi. Bunday yo`l aholi punktida bino ichki vodoprovod bilan ta`minlangan sharoitda va iflosliklar etarli darajada suv bilan aralashtirib suyultirilgandagina amalga oshirilishi mumkin.

